

## **INTEGRATED INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF VOCATIONAL GUIDANCE OF STUDENTS**

Sattarova Sevinch Berdiyar's daughter  
Trainee-teacher of Jizzakh State Pedagogical University

### **ABSTRACT**

The purpose of career guidance in this article is to prepare the growing young generation to consciously choose a profession, and this process is the process of formation of a person as a subject of future professional activity. Information on measures to increase the quality of continuous education and the effectiveness of science in the field of biology is provided.

**Keywords:** profession, skill, direction, labor, interest, relations, teaching, interest, formation.  
O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning integratsiyalashgan innovatsion texnologiyalari

## **O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATION TECHNOLOGIES**

Sattarova Sevinch Berdiyor qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanish jarayonini o'taydi. Biologiya yo'nalishida uzlusiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** kasb, mahorat, yo`nalish, mehnat, manfaat, munosabatlар, o`qitish, qiziqtirish, shakllantirish.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil toplashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalq xo`jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to`laqonli ta'minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini hisobga olish kerak. O'quvchilar shaxsini shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasb tanlash ishlarining puxta o`ylab tashkil qilinishi katta rol oynaydi. Har bir o'quvchining oldida o`zi yoqtirgan kasbni tanlash uchun keng imkoniyatlar bor.

Har qaysi maktabdagi kasb tanlash ishlarining vazifasi va mazmuni uning atrofidagi ishlab chiqarishning xususiyatlari, tabiiy sharoitlari mazkur iqtisodiy tomondagi xalq xo`jaligi va madaniyatining rivojlanish yo`nalishlari bilan belgilanadi. Maktab o`z tarbiyanuvchilarini kasblar, mehnatining mazmuni, u yoki bu kasb egalariga qilinadigan talablar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish o'quvchilarning individual, jismoniy va psixologik xususiyatlarini o`rganish va ularga ana shu xususiyatlarga mos kasblarni tanlashlarida yordam berish kerak. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosa mehnat va kasb tarbiyasini, ta'limini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradigan

ulkan ishlardan biri bo`lib juda o`tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq, elat bo`lib shakllanishi mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Inson paydo bo`lishidan boshlab mehnat bilan shug`ullangan, turmush buyumlari yasagan namunalar bajargan. XII-XV asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda hunar, ilmi kuloni rivojlanishi eng yuqori pog`onaga ko`tarildi. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo`lib, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan o`zining tarixiy –madaniy birligi bilan ajralib o`ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. O`zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamizning hududida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo`lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo`lib ajralib chiqqan. IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar avj olgan.

Fanni o`qitishdan maqsad - talabalami har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta`lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolami ijobjiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g`oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ulami ta`lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs -mehnat ta`limi o`qituvchi sifatida umumiyo`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llash ishlarini amalga oshirishni shakllantirishdir. Fanning vazifasi - talabalarga pedagogik-psixologik bilimlar, kasb hunarga yo`naltirish ishlarini olib borish tashkil etish ko`nikmasi; mehnat ta`limi fanini o`qitish jarayonida kasb hunarga yo`naltirish ishini tashkil etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolami hal etish; mehnat ta`limini o`qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini (har bir kasbga o`rgatishning mazmuni va o`ziga xosligini mintaqaviy xususiyatlami hisobga olgan holda) o`rgatishdan iborat.

Talabalaming kasb hunarga yo`naltirish fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalar, ma`ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalaming ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma`ruza, seminar va laboratoriya darslarida mos ravishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Yoshlarni kasb hunarga yo`naltirishning nazariy shart-sharoitlari: fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kasb hunarga yo`naltirish asoslari tog`risidagi ta`limot: fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot; kasbni to`g`ri tanlashning ahamiyati; umummehnat va maxsus malakalamni, kasbga bo`lgan qiziqishini shakllantirish. Mehnat ta`limi o`qituvchisiga qo`yiladigan talablar: o`qituvchining kasb hunarga yo`naltirishdagi faoliyati va boshqaruvchanligi; mehnat o`qituvchisiga qo`yiladigan talablar; o`qituvchining psixologik-pedagogik, umumkasbiy va tayyorgarligi. Kasbga yo`naltirish bosqichlarining mazmuni: kuzatish; diagnostik suhbatlar; Kasb hunarga yo`naltirish ishining mifik tizimi. O`qituvchining shaxsi, fan o`qituvchilarf, sinf rahbari; o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari. Ta`lim muassasalarida kasb hunarga yo`naltirish metodikasi. Kasb hunarga yo`naltirish komissiyalarini tashkil qilish; o`qituvchilar bilan metodik ishlami tashkil qilish; o`quvchilar bilan ishslash; ota-onalar bilan ishslash. Kasb

hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati. Kasblar xarakteristikasi - professiogramma. Kasb hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan talablar. Maktabda mehnat ta'limi darslarida kasb hunarga yo'naltirish, boshqa soha mutaxassisliklar bilan tanishtirish, o'quv muassasasi atrofidagi korxonalar bilan tanishtirish. Ta'lim muassasalaridan tashqari kasb hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish. Ekskursiyalami tashkil qilish, kasb hunarga yo'naltirishda ommaviy axborotlar vositalarining ahamiyati. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishiga rahbarlik qilish va uni rejorashtirish. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilami maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlash tizimi. Kasb-hunarga yo'naltirishning tarkibi.

Yoshlarning komil, erkin fikrlovchi inson bo'lib kamol topishlarida o'zi va o'zgalarga to'g'ri va odilona baho berishga o'rgatmog'imiz zarur. Shunday ekan, erkin fikrlay oladigan o'smir yoshidagi o'quvchi shaxsini shakllantirish yoshlarini o'z-o'ziga hamda atrofdagilarga to'g'ri baho bera olishga, ularning bilishga qiziqishini kuchaytirishga va o'z bilimlarini mustaqil to'ldirish ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak. Inson o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholamog'i, eng avvalo, boshqalarga to'g'ri fikr berish va ular bilan muloqot jarayonida boshqalarda kuchli taassurot qoldirishi kerak bo'ladi. Axborot inson ongida yaratilgan va jamiyat moddiy-ma'naviy boyligiga aylangan turli bilimlarning bir ko'rinishi hisoblanib, shaxsiy va jamoaviy faoliyatning yo'nalishini belgilashda ta'sir ko'rsata oladigan "kuch"ga egadir. Garchi, axborot tahlilini amalga oshirishda siyosiy, psixologik, harbiy, pedagogik, texnik, huquqiy yoki tibbiy nuqtayi nazardan yondashilsa-da, bu axborot hali ijtimoiy ahamiyatga ega, degan hukm chiqarishga asos bo'la olmaydi. Qachonki, axborot insonlarning foydasiga xizmat qilsa va uni ijobiy odatlar tarzida o'ziga singdira olgandagina, mazmunan ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'la oladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkich boshqa baholash mezonlariga qaraganda juda muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning milliy taraqqiyotidagi muhim omillaridan biri o'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizni komilligiga erishishdadir. O'z foliyati mazumuniga javob bera oladigan munosib mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Ayni damda ilm-fan tarraqiyotining rivojlanishi asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muhim masalalardan biri hisoblandi. Bu esa ta'lim jarayonida axborot vositalaridan foydalanish davomida, ilm-fanning rivojlanishiga xizmat qiladi va ta'lim ishtirokchilarining zamonaviy kadr bo'lishlarini ta'minlaydi.

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Shaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi.

Ya`ni, kasb faoliyati - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o'xshash.

Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma lum narsaga -predmetga qartilgani uchun

xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo'ladi. Agar o'ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, qo'l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mammuniyat xis qilayotganligidan darak beradi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqlilagini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak.

Kasbga yo'naltirish - bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir [1].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 75-bet.
2. Abdullayev X. Pedagogikani o'qitish metodikasi. -Farg'ona. 2008. 31-bet.
3. YoziYeva U.L. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi. –Nukus. 2018. -156 b.
4. Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati: Falsafa fanlari nomzodi. ... diss. -T., 2008. -176 b. 5. Jo'rayev N. O'zbekistonda yangilanishlar konsepsiyasining yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyotda qo'llanilishi: Siyosiy. fanl. dok. diss... Avtoref. -T., 2001. -54 b.
5. Kaxxarova M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Avtoref. ... fal.fan.dok. -T., 2012. -56 b.